

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

3-bosqich "V" guruh talabasi Turg'unova Sohibaning tayyorlagan

REFERATI

Mavzu: O'zbek folklorida mifologik qush obrazi

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi Z.Eshanova

Andijon-2016

Mavzu: O'zbek folklorida mifologik qush obrazi

Reja

Kirish.

1 . Mifologik qush obrazi haqida ma'lumot.

11. Sehrli ertaklarda mifologik qush obrazi

111. O'zbek xalq dostonlarida mifologik qush obrazi.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar.

Kirish.

O'zbek xalq og'zaki ijodi asrlar osha avloddan avlodga o'tib yashab kelmoqda. Folklor asarlarida xalqimizning asrlar osha shakllangan ma'naviy qiyofasi, donoligi o'z aksini topgan. Ana shunday xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish, kelgusi avlodga yetkazish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi bilgan odamga hech qanday yovuz g'oyalar tahdid sola olmaydi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini yaxshi o'rgangan insonlar o'z zamonining eng ilg'or kishilari, shoir va yozuvchilari bo'lib yetishgani tarixdan ma'lum. Shunday ekan xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rganish bizning ma'naviyatli, ma'rifatli inson bo'lib shakllanishimizda muhim omillardan biridir.

O'zbek xalq ijodi namunalarida o'zbek xalqining qadim tasavvurlari o'z aksini topgan bo'lib, ular o'ziga xos mifologik motivlarda, mifologik obrazlarda o'z aksini topgan. Bunday obrazlar tizimi xalq og'zaki ijodi asarlari tarkibida ma'lum poetik vazifalarni bajaradi. SHunday mifologik obrazlardan biri qush obrazidir. Biz mazkur kurs ishimizda o'zbek folkloridagi mifologik qush obrazining o'ziga xos xususiyatlarini, badiiy asar kompozitsiyasidagi vazifalarini yoritib berishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik. Kurs ishimizni yozishda olidimizga qo'ygan vazifalar quyidagilar:

- mifologik obrazlar haqida ma'lumotlarni o'rganish;
- o'zbek xalq sehrli ertaklaridagi mifologik qush obrazini o'rganish;
- xalq dostonlaridagi mifologik qush obrazining o'ziga xos xususiyatlarini yoritish;

- mifologik qush obrazining badiiy asar kompozitsiyasidagi poetik vazifasini aniqlash.

Kurs ishimiz uchun o'zbek xalq og'zaki ijodidagi ertak va dostonlar ob'ekt qilib olindi.

1 . Mifologik qush obrazi haqida ma'lumot.

O'zbek xalq og'zaki ijodi asarlari o'ziga xos obrazlar tizimiga ega bo'lib, shunday obrazlar sirasiga mifologik obrazlar kiradi. Mifologik obrazlari insoniyatning ibtidoiy qarashlar tizimi mahsuli bo'lgan miflar zaminida paydo bo'lgan bo'lib, bunday obrazlar xalq ertaklari va dostonlari tizimida muhim poetik vazifa bajarib keladi. Shunday mifologik obrazlarga ot, tuya, bo'ri, qush, ajdar, dev, pari, epik homiy kabilar kiradi va ular alohida obrazlar tizimini tashkil etadi.

Mifologik obrazlar tizimida qush obrazida o'ziga xos xususiyatlari, ko'p vazifa bajarishi bilan ajralib turadi. Mifologik qush obrazlari badiiy asar kompozitsiyasida asosiy o'rinni egallaydi. Ular qahramonga homiylik qilish, yordam berish, himoya qilish kabi vazifalarni bajarish bilan birga syujet rivojining tabiiy rivojini ta'minlab, asarga fantastik ruh bag'ishlaydi. Mifologik qush obrazlari o'zbek xalq sehrli ertaklari va dostonlarida turli ko'rinishlarda keladi. Mifologik qush obraziga Semurg', Anqo, Humo, qaldirg'och, g'oz, laylak, burgut, ko'ktubulg'on kabi qushlar kiradi. Mazkur qushlar xalq tasavvurida g'ayrioddiy qushlar bo'lib, ular insonlarga Xudo tomonidan yordamchi qilib yuborilgan. Mifologik qushlarning yuzaga kelishi tarixi, hayotdagi voqelikka ibtidoiy insonning ongsiz munosabatdan boshlangan turfa xil dunyoqarash, qush kulati, kosmogonik mif, Xudo haqidagi tushuncha, real qushlarga e'tibor, har birining o'ziga xos belgilari, ovozi, turli xil harakat, o'zaro munosabati, sayrash, ovoz ohangi, xarakterli uchishining ta'siri zaminida paydo bo'lgan.

Mifologik qush obrazining kelib chiqishi haqida folklorshunos olim Komil Imomov shunday fikrlarini bayon etadi: "Avesto" kitobida bir qator asotir qushlar

olov shaklida naql etilgan. SHuningdek, talqinda har bir qushga mansub qo'shqanotlar ham ilohiylashtirilgan. SHundan bo'lsa kerak, majusiylar quyosh olovini orzu qilishgan va osmon olovidan qo'shqanot qushlargina olib kelishi mumkin, degan qat'iy fikrni ma'qullashgan. Ongsiz mushohadaga idroksiz munosabat mifologiyada ilk bor olov keltirgan qush motivinining paydo bo'lishiga olib kelgan. Bu motiv transformatsiyasi jarayonida rivoj topib, taraqqiy etgan. Ammo, davrlar davomida diniy funktsiyani ado etgan mifologik e'tiqod evolyutsiyasining to'xtab qolib, unut bo'lishi esa, yangi hodisa - afsonaga mansub namunaning shakllanishiga olib kelgan. Uning zvoliutsiyasida yuz bergan olov olib kelish ehtimol atalgan taxmin esa, saena¹ olov atalgan asotir qushlar obrazining paydo bo'lishiga imkon bergai. Har bir qushning poetik transformatsiyasi esa mazkur motivga mansub mifologik nusxaning so'nishini ta'minlagan. Biroq, olov kul'ti bilan bog'liq e'tiqodning rivoji mazkur tip motiv asosida afsona janrining yuzaga kelishi va uning shakllanishiga yo'l ochgan".²

Bir qator afsonalarda burgut obrazining ulug'vorligi, uning insonlarga homiylik qilishi tasvirlanadi. Burgut mifologik obraz sifatida qadimgi ajdodlarimizning mifologik qarashlari asosida shakllangan. Hozirgi kunimizda ham tog'li joylarda yashovchi xalqlar burgutni ilohiy qush sanashadi, ayniqsa, uning tirnog'i, pati, va tumshug'ini olib yurib insonga omad va baxt olib keladi, deya tasavvur qilishadi.

Burgut mif hukmron zamonda muqaddas qush atalgan. U zabardast qudrat ramzi, turkiy xalqlar tafakkurida ilk bor olov keltirgan ilohiy qush³, tabiat in'om etgan sirli zot, mahobatli, tomonga madadkor personaj sifatida faoliyat ko'rsatadi. U rus mifologiyasida yorug' nur timsoli, jar ptitsa, olov ramzi sifatida tajassumini topgan⁴.

¹ Авесто. Яшт, 14.41

² Имомов К. Ўзбек фольклорида Хумо қуши. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011-йил, 5-сон, 21-бет

³ Токарев С. А. Огонь // Мифы народов мира. Том 2. М., 1997. С. 158-160.

⁴ Ўша манба, 346-348-бетлар

O'zbek xalq afsonalarida keluvchi qaldirg'och obrazi ham mifologik qush obrazi sanaladi. Qaldirg'och "Avesto" asosidagi mifologik qarashlari ta'sirida paydo bo'lgan. Bir guruh afsonalar aniq va yorqin ifodalangan qaldirg'ochga mansub etiologik belgilarning paydo bo'lish shartini sharhlashga qaratilgan. Qaldirg'och - olov olib kelgan mo''tabar xilhat. Uning tez va soz uchishi, faol harakati, uy va ayvon peshtoqiga uya qurishi, insonga yaqin yashashi uni muqaddas qush, tabarruk, ilohiy zotga aylantirgan. Jonivorning ayrim xususiyatlari, og'zining qizilligi, ayri dumi kabi belgilarning kelib chiqish sababi vokeaning quyidagicha hikoya qilinishini ta'minlagan.

Ahraman olovni o'g'irlabdi, odamlar olovsiz, og'ir hayot kechirishibdi. Bundan xabar topgan qaldirg'och kishilarga yordam bermoqchi, olov olib kelmoqchi bo'libdi. U uchib ketibdi. Qarasa, Qora o'tov mo'rkonida qizil cho'g'lar yaltirab turganmish. Otashkada atrofni haybatli ilon o'rab olgan. Qaldirg'och o'tov mo'rkoniga uchib kiribdi. O'chog'dan og'ziga olib, uchib chiqib ketayotganida ilon hamla qilib, uni ushlab olmoqchi bo'libdi, ulgurmabdi. Dumi uchidan tishlaganidan, dumi ikkiga ajralib qolibdi. U olovni xalqqa yetkazibdi. SHu-shu qaldirg'och inson zotining sevimli qushiga aylanib qolgan ekan.

Qaldirg'och homiy qush sifatida ilohiylashtirilgan, kul't darajasiga olib chiqilgan. Bu uning harakati, orzu-istak, xohishida amal qiladi. U - homiy kuch, yaratuvchi, ilohiy qudrat timsoli. Qushning funktsional harakatida insonparvarlik, jasurlikning yorqin namunalari istifoda etilgan. U zulmatni yoritishdek maqsadni amalga oshirishda matonat, qat'iylilik ko'rsatadi. Obrazning bu harakati inson qalbini yoritib, qushga e'tiqod uyg'otadi. Timsoliy obraz semantikasi syujet voqealarini aniqlab, fantastik ko'lamni oshirish, g'ayritabiiylilikni bo'rttirib, qarshi personaj mazmuni, o'ziga xos xususiyatini belgilaydi, eng muhimi, u syujet rivojida burilish yasab, konflikt yuksalishiga nuqta qo'yadi, qolaversa, himoya qilish, insonparvarlik g'oyalarini inkishof etadi. Jonivor faoliyati tinglovchi qalbida mardlik, jasorat

ko'nikmalarini tarbiyalaydi. Qush og'zining qizilli, ayri dumi -qaldirg'ochning tabiiy belgilari. Ana shu g'alati ko'ringan, e'tiborni tortgan alomatlar hikoyaning yuzaga kelishida asosiy sababchi vositaga aylangan.⁵

G'ayritabiiy ifodalangan asotir qushlarning genezisi, tarixiy asoslari bir manba, qadimgi mifologik qatlamida shakllangan muqaddas saena, qush kul'iti, kosmogonik asotir, olovga muhtojlik g'oyalari, animizm tushunchalariga borib taqaladi. Qushning epik namunasi qahramonga yordamchi, himoyachi personaj sifatida faoliyat ko'rsatadi. Qahramonni zulmat dunyosiga olib tushib, ko'z yumib-ochguncha yorug'lik olamiga olib kiruvchi ilohiy qudrat, vazifasi uch olamni o'zaro bog'lash, qahramonni sirli hodisalardan voqif etish yo'l ko'rsatishga yo'naltirilgan bo'lib, asosan ta'limiy-estetik funktsiyani ado etadi. U - olov ramzi.⁶

U burgut ta'sirida shakllangan qudratli kuch timsoli, zabardast qush. Uning mifologik alomati, magik xususiyati, qo'sh qanoti ilohiylik belgilaridir. Saena qush ulkan ne'mat ato etuvchi, olov timsoli. Bu uning yomg'ir bulutlarini haydab kelib, elatni suvga serob qilganida, imonlilar uyini mol-u qo'y bilan to'ldirib, qut-baraka, farovonlik, mo'l-ko'lchilikni bunyod etishda amal qiladi. Saena qushga mansub magik xususiyat, mifologik belgilari uning g'ayrioddiy faoliyatida aks etib turadi.

Folklorshunos olim Komiljon Imomov asotir qushlar shakliy tuzilishi, mazmun-mohiyati, funktsional harakatlari, tabiati, yashash tarziga ko'ra shartli ravishda uch tipga bo'ladi:"Birini - Saena qush, ikkinchisini - Xvarna qush, uchinchisini - Semurg' tashkil etadi.

Saena merevo, senmurva va Semurg' atalgan ilohiy qushlar Saena atalgan ibtido zamirida tashkil topgan. Ularning har biri o'ziga xos ma'nosi, shakli-shamoyili, funktsiyasiga ega bo'lgan tiplardir".⁷

⁵ Имомов К. Ўзбек фольклорида Хумо куши.//Ўзбек тили ва адабиёти.2011-йил,5-сон,22-бет

⁶ Имомов К. Ўзбек фольклорида Хумо куши.//Ўзбек тили ва адабиёти.2011-йил,5-сон,23-бет

⁷ Имомов К. Ўзбек фольклорида Хумо куши.//Ўзбек тили ва адабиёти.2011-йил,5-сон,23-бет

Saena⁸ qushga mansub og'zaki namunalar "Avesto"dan oldin paydo bo'lgan. U eng qadimgi mifologik qush obrazidir. Asotir qush dualizm mohiyatini o'zida zuhur etgan omil, tabiat va jamiyat hodisalarining azaliy to'qnashuvi, zzzgulik va yovuzlikning o'zaro omonsiz olishuvini vasf etgan mo''tabar xilqat. U ana shu doimiy kurashda qahramonga omad va baxt ato etuvchi, qavm mulkiga qut-baraka in'om etuvchi ezgulik ilohasi.

Saena qush ezgulik tangrisi, adolatpesha, yaxshilik va omad ato etuvchi ma'bud (Axuramazda) ning eng yaqin yordamchilaridan biri. U eng ulug' ne'matlar jam bo'lgan Xoma daraxtini makon tutgan, yaratuvchi, muakkil mazmunidan unib chiqqan muqaddas qush. Aytish mumkinki, bu qush magik qudratga ega bo'lgan asotirning ramziy ifodasi.

U "Avesto"da Saena atalgan. Qushning ertakka aylangan epik namunasi esa Semurg', pahlaviy matnining VI asrga mansub nusxasi, menokexratda senmurva deb nomlangan. Saena qushning genezisi, tarixiy ildizlari qadimgi qush kulbtiga borib taqaladi.⁹

"Avesto"da naql etilgan saena qush yurt va elat homiysi, u nisbatan keng ifodalangan, bo'rttirilgan, ulug'vor, ulkan mahobatli, qanoti keng tog'ni qoplab olgan yomg'irli bulutday tasvirlangan. Demakki, u burgut ta'sirida shakllangai qudratli kuch timsoli bo'lib, uning mifologik alomati, magik qudrati, qo'shqanoti ilohiylik belgilari sifatida tavsiflangan.

Saena qushning asosiy funktsiyasi ezgulik yaratish, urug'-elatni himoya qilish, diniy e'tiqodga jalb qilish, ezgulik ma'budiga ishonch uyg'otish, tashviq etishdan iborat. Qushning yaratuvchilik xususiyati ilohiylik alomatidir. U ezgulik ilohasining ramziy shakllangan ifodasidir. Uning poetik transformatsiyasi, shakllangan namunasi saena merevo, senmurva mohiyatini tashkil etadi. Uning eposga ko'chib, badiiylik kasb etgan intihosi semurg' atalgan.

⁸ Авесто. Варахран алкови// Ўзбек тили ва адабиёти, 2000,3-сон, 72-бет.

⁹ Имомов К.Ўзбек фольклорида Ҳумо куши.//Ўзбек тили ва адабиёти.2011-йил,5-сон,23-бет

Xvarna far¹⁰ - o'zbek mifologiyasida Mazda olovining alomatlarini o'zida mujassam etgan asotir qush obrazi. U- jonsizga jon, baxtsizga omad ado etuvchi xususiyatga ega bo'lgan mavjudot, kosmogonik mif ma'budi. Asotir e'tiqodiga ko'ra, u osmon olovi, quyosh nuridan paydo bo'lgan ezgulik ilohasi, uning ramziy obrazi, asosiy funktsiyasi mifologik dunyoqarash hukmron zamonda ta'limiy-e'tiqodiy g'oyalarni tashviq etgan, ma'bud, ilohlar, pir, avliyolarni ulug'lash, idealni tashviq etish, mifologik ta'sir kuchini oshirish, muayyan ma'budlarning ma'rifiy qarashlarini ma'qullash, ta'limiy mohiyatini ilgari surish, yovuzlikni inkor etishni yoritish vazifasini ado etishdan iborat.

Xvarna farning epik talqini Humo atalgan qush nomi bilan mashhurdir. Humo qushning mifologik shakli - "quyoshga qo'ngan qush" ataladi. Har bir harakati esa ilohiy va magik qudrati bilan bog'liq belgilarida tavsiflangan.

Eposda u yordamchi personaj, qahramon homiysi sifatida faoliyat ko'rsatadi. G'ayrioddiy asotir qushning shakliy tuzilishi ma'nosiga ko'ra, u zulmat dunyosi, ruhlar olamining vakili, o'tgan imonlilar tomonidan yaratilgan, zzzgulikni ato ztuvchi timsoliy obraz. Uning yaratish xususiyati va qo'sh qanoti ilohiylik jihatlaridandir. Diniy, e'tiqodiy g'oyalarni tashviq etuvchi xayoliy, ammo shakliy tuzilishi, semantikasi, asosiy funktsional harakati, mazmun-mohiyati o'ziga xos xarakterli belgilaridandir.¹¹

SHunga qaramasdan, mazkur tipga mansub asotir qushlar o'zaro farqlanadilar, har biri o'ziga xos belgilari mujassam guruhlarni tashkil etadilar. Demak, saena merevo, senmurva va semurg' atalgan ilohiy qushlar Saena ibtido zamirida tashkil topgan.

Semurg' atamasi qadimgi Saena, saena merevo, senmurva atalgan qushlar nomining fonetik o'zgarishga uchragan so'nggi nusxasi. Mazkur ibtidoning evolyutsiyasi, epik transformatsiyasida Ko'ktubulg'on¹², murg'ifarmon, murqimomo singari g'ayrioddiy qushlar paydo bo'lgan. Ular Saena va semurg' atalgan qushlar ta'sirida tashkil topib shakllangan turli xil variant, versiyalardandir. Semurg' – tarixiy taraqqiet jarayonida

¹⁰ Авесто.Орд Яшт. Аши алқови // Ўзбек тили ва адабиёти, 2000, 3-сон, 75-бет

¹¹ Имомов К.Ўзбек фольклорида Хумо қуши.//Ўзбек тили ва адабиёти.2011-йил,5-сон,24-бет

yuzaga kelgan epik qahramonning poetik_transformatsiyasi. Semurg' Eron eposida ikki xil tipda zuhur etilgan. Biri - marhamatli qush, qahramonga homiy yordamchi personaj sifatida faoliyat ko'rsatadi, ikkinchisi - darg'azab zolim shaklida istifoda etilgan mifologik obraz.¹³

Turkiy xalqlar eposida u doimo bir xil,ijobiy ma'no tashuvchi sifatida tavsiflangai. U o'zbek xalq eposida yordamchi personaj, qahramonga do'st, homiy, safarda yo'ldosh, uzoqni yaqin, mushkulni oson qiluvchi, sirli hodisalardan voqif etib, yo'l ko'rsatuvchi madadkor kuch, ayni paytda, yovuzlikning ashaddiy dushmani sifatida faoliyat ko'rsatadi. Uning bu xil vazifasi tabiatida, nutqi, faol harakatida amal qiladi. Qushniig magik kuchi, jodu xususiyati, g'oyatda tez uchishi raqibni mag'lub etish qudratidandir.

Bu xil xarakterli belgilar, sifatlarning qushda zuhur etilishi darajasi shiddatli tus oladi. Zo'r qudrat, haybatli qiyofa semurg' harakatida tezlashadi, jiddiy tus oladi, u timsoliy obrazning yorqin namunasiga aylanadi. Qush obrazining badiiy talqini sehrli ertaklarning o'ziga xos tabiatini aniq ifoda etadi. SHuningdek, mifologik obraz talqinida suv ilohasi Anaxita ta'siri seziladi. Uning asosiy vazifasi qaxramonni himoya qilish, ko'mak berish, yo'l ko'rsatishga yo'naltirilgan. Semurg' qahramon sarguzashtida mo''jiza ko'rsatadi va ezgulik yaratishda hal qiluvchi kuchga aylanadi.

Anqo va Humo - Axuramazda qudrati bilan yaratilgai Semurg' ta'sirida yuzaga kelgan bo'lib, har ikkisi baxt ato etuvchi, g'ayritabiiy xususiyatga ega bo'lgan ulug'vor qushlardir.

Anqo - baxt va tole qushi. Uning asosiy belgilari ko'zga ko'rinmaslik, tana va qanotlari, boshi oltin, kumush, qimmatli toshlardan yasalgan¹⁴. Anqo - yo'qlikning ramziy ifodasi.

¹² Махмуд К о ш ғ а р и й. Девону луғотит турк, 1 -жилд. Тошкент, 1960.477-бет.

¹³ Имомов К.Ўзбек фольклорида Хумо қуши.//Ўзбек тили ва адабиёти.2011-йил,5-сон,24-бет

¹⁴ Ўзбекистон тарихи.1-жилд.Тошкент,1956,38-бет

Humo - davlat qushi tushunchasining tarixiy ildizlari "Avesto"da mavjud asotir qush Far bilan bogliq. Uning epik nusxasi humo qushni anglatadi. Xvarna Far olov ma'budi, omad va tole timsoli bo'lib, u kimning boshiga qo'nsa yoki soya solsa, unga baxt va iqbol ato etadi.

Humo qushning qadimdan mashhurligini arxeologik topilmalar ham tasdiqlab turadi. Varaxshadan topilgan arxeologik qazilmalardan birida yarmi qush, yarmi ayol rasmi chizilgan topildi kishi e'tiborini tortadi. Unda qanotli ,qo'shoyoq ayol tasvirlanadi. Rasm mazmunidan ayon bo'ladiki, Semurg' suv piri Anaxita bilan bog'liq holda tavirlangan, Bu topilma ibtidoiy dunyoqarash, tasavvurlar zaminida tashkil topgan san'at asaridir.¹⁵

O'zbek folkloridagi mifologik qushlardan biri laylak bo'lib, u haqda Xondamir o'zining "Habib us-siyar" asarida shunday yozadi: " **Laylak** - juda katta jonivor. Olimlarning fikricha, har kim laylakning suyagini o'zi bilan olib yursa, g'am-anduhdan holi bo'ladi. Agar kishi laylakning ko'zini o'zi bilan birga olib yursa, u suzishni bilmasa ham suvda g'arq bo'lmas emish", - deydi. Xalq orasidagi laylak haqidagi e'tiqodiy qarashlar uning mifologik qush sifatida shakllanishiga asos bo'lgan.

11. Sehrli ertaklarda mifologik qush obrazi

O'zbek xalq ertaklari orasida sehrli ertaklar alohida ajralib turadi. Sehrli ertaklar o'zining g'ayrioddiy qahramonlari, xayoliy uydirmaga asoslangan syujeti bilan o'quvchining e'tiborini tortadi. Sehrli ertaklarda qahramonga sehrli buyumlar, sehrli jonzotlar, dev va parilar yordam beradi. Sehrli ertaklar tarkibidagi shunday obrazlardan ko'p uchraydigani bu mifologik qush obrazidir. Sehrli ertaklarda eng ko'p uchraydigan mifologik qush obrazi bu Semurg'dir. Semurg' sehrli ertaklar kompozitsiyasida qahramonga yordam beruvchi epik homiy vazifasini bajaradi. Aksariyat sehrli ertaklarda qahramon Semurg'ga yordam beradi, uni balolardan qutqaradi. Buning evaziga Semurg' ham qahramonga yordam beradi. Aksariyat hollarda Semurg' qahramonni odam oyog'i yetib bora olmaydigan mifologik makonga olib borib qo'yadi. Yoki yerosti saltanatiga olib borib keladi. Bundan ko'rinadiki, Semurg' ikki olamni bog'lovchi mifologik xarakterga ega bo'lgan qush sanaladi.

Sehrli ertaklar syujetida mifologik qush obrazi quyidagi vazifalarni bajarib keladi:

1. Epik homiy vazifasida kelishi.
2. Baxt va tole qushi
3. Dev va parilarning qushga aylanishi

O'zbek xalq sehrli ertaklaridan bo'lgan "Semurg'" ertagida Semurg' epik homiy vazifasini bajaradi. Ertak syujetiga qo'ra bir qari ovchining uch o'g'li bor ekan. Uch aka-uka ovga chiqishsa, kechasi ularning ovqatini kimdir yeb ketayotgan ekan. Uchinchi kuni Kenja botir Yalmog'izni tutib olib, kallasin uzib yuboribdi. Kalla yumalab, g'orga kirib ketibdi. Kenja botir g'orga tushsa, u yerostiga olib tushadigan

¹⁵ Имомов К. Ўзбек фольклорида Хумо қуши. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011-йил, 5-сон, 25-бет

yo'l ekan. Yerostida bir qiz Yalmog'izning uyida yashar ekan, Kenja botir Yalmog'izni o'ldirib, qizni qutqarib, yer yuziga chiqayotganda, katta akalarining niyati buzilib, arqonni kesib yuborishibdi. Kenja botir yerosti dunyosida qolib ketibdi. Yer yuziga qanday chiqsam ekan, deb o'ylanib yursa, bir qo'shchi cholga duch kelib qolibdi. Qo'shchi chol unga seni faqat Semurg' yer yuziga olib chiqishi mumkin, deb unga yo'l ko'rsatibdi. Kenja botir chol o'rgatganday yo'l tutibdi. Semurg'ning bolalarini ajdardan qutqaribdi. Semurg' esa Kenja botirni yer yuziga olib chiqib qo'yibdi va uning homiysiga aylanibdi.

O'zbek xalq sehrli ertaklari kompozitsiyasida qush obrazi baxt va tole qushi ma'nosida ham kelib, qahramonning taqdirini o'zgarib ketishiga turtki beradi.

Anqo va Humo baxt va omad yaratish funktsiyasi bilan ajralib turadi. Demak, Semurg', Anqo va Humo qushlarining epik nusxalari g'ayrioddiy xususiyati, ma'nosi, ertak syujetida tutgan o'rni va funktsiyasiga ko'ra o'zaro tipologik o'xshashlikka ega. Ular o'zbeklarning ko'hna dunyo qatlamida yashagan ajdodlari shuurida yuzaga kelgan muqaddas qush, omad va tole haqidagi tushunchalarning o'zaro uzviy bog'lanishida kelib chiqqan badiiy umumlashmalardir.

Bu xil qushlar ertaklarda ijtimoiy-maishiy ma'no kasb etib, inson saodati, adolatli shoh haqidagi ideal g'oyalarining badiiy tajassumi, yaxshi niyat, orzu-istaklarining o'ziga xos badiiy ifodasiga aylangan.¹⁶

Odil shoh haqidagi ideal g'oyalar xalq tafakkurida qayta ishlanadi va badiiy obrazlarda jilolanib, o'ziga xos motivlarda aks etgan. Ertaklarda Humo qushni uchirish va tolei baland kishini (boshiga qo'nish) aniqlash hodisasi syujet voqealarining mantiqiy uzviyligini ta'minlab, bosh qahramon taqdirida o'zgarish yasash, uni odil shoh sifatida belgilash vazifasini ado etadi. Anqo va humo insoniyat shuurida saqlangan adolatli shoh haqidagi asriy orzularni bunyodkori, badiiy obrazlarga ko'chgan timsollaridir.

Sehrli ertaklarda dev va parilarning qushga aylanishi motivi mavjud bo'lib, bu ham xalqning animistik qarashlari asosida shakllangan. "Qirq kuyov" ertagida ham ajdarning joni kaptar shaklida bo'lib, kichik o'g'il kaptarning kallasini uzib, uning ichidan chiqqan qurtni o'ldirgandan so'ng ajdar o'ladi. Yoki, "Guliqahqah" ertagida devning joni kaptar bo'lib, kaptarni ushlab olgan qahramonga dev bo'ysunadi: "Bo'ldi, bo'ldi. Senga gap bo'lsa,— deb yyquga ketibdi. Bir payt og'zidan bir kaptar kirib-chiqib yotgan emish. "Puff" desa chiqarmish, "ffu" desa kirarmish. Vahobjon birpas poylab turibdi-da, devning ustiga chiqib, og'ziga kirib chiqayotgai kaptarni ushlab olibdi. SHu payt dev ko'zini ochib: — Bu nima qilganing?— debdi. — Men sennng joningni olib o'ldirgani kelgan azroyilman,— debdi qorovul "dev". Taxmon dev:— Sen devsan-ku?! Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qiydimi? Sen dev bo'la turib mening jonimni olasanmi, hazillashayotgan bo'lsang, hazilingni yig'ishtir, — debdi. Vaxobjon:— Men dev emasman,— deya ilmu sehrini ishga solib devdan odamga aylanibdi. Buni ko'rib dev tozayam qo'rqib ketibdi. Dev qo'rqqani sari Vaxobjon uning qo'ltig'i tagidagi jonini qattiqroq qisarmish. Hap qisganda devning qovurg'alari qisirlarmish. Taxmon dev:—Sen yengding, jonimni tezroq qaytarib ber. Hozir o'lib qolaman. Nima tilaging bo'lsa qilaman. O'la-o'lguncha quling bo'lib qolaman, — debdi.¹⁷ Ertaklardagi jonning qush sifatida anglanishi xalqimizning animistik qarashlari asosida kelib chiqqan. Xalq orasida ham odam jonining qushga aylanishi haqida turli afsonalar mavjud. Bu haqida folklorshunos olim M. Jo'raev quyidagi fikrlarni aytadi: "Odam jonining qush (ko'pincha "kaptar") shaklida namoyon bo'lishi haqidagi animistik tasavvur o'zbek xalq afsonalarida keng tarqalgan asotiriy motivlardan biri. Jumladan, Xorazm vohasida yozib olingan suv kul'ti bilan bog'liq mifologik afsonaning etnograf olim G.P. Snesev tomonidan yozib olingan bir variantida ana shu qadimiy syujet elementi saqlangan: "hikoya qilishlaricha,

¹⁶ Имомов К. Ўзбек фольклорида Хумо куши. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2011-йил, 5-сон, 25-бет

¹⁷ Гулиқаҳқаҳ, 12-бет

SHayx Hakimota Burxonning go'zal qizi Anbar onaga uylanadi va undan uch o'g'il farzand ko'radi. Kenjasining ismi Hubbi bo'ladi. Otasi katta bolalarini yaxshi ko'rar, Hubbi esa Ambar onaning sevimligi ekan. Bir kuni Hakimota o'g'illarini sinab ko'rmoqchi bo'ladi. SHunda onasining chaqirganini eshitgan Hubbi volidasining huzuriga ancha kechikib keladi. Onasi nega kechikkanligining sababini so'rganida, u birinchi marta chaqirganida, suvga cho'kayotgan kemani qutqarganini, ikkinchi safar esa suv balosidan qutulgan kishilar unga atab qurbonlikka so'ygan ho'kizni tiriltirganligini aytib beradi. O'z vaqtida yetib kelmaganligi uchun Hubbi otasi bilan chiqisholmay qoladi. Hakimota uning uydan chiqib ketishini talab qiladi. SHunda Ambar ona Hubbini uyga qamab qo'yadi. Ammo Hubbi kiyimlarini yechib tashlab, kaptarga aylanadi va uy tomidagi tuynukdan uchib chikib ketadi". Bizningcha, Xorazm afsonalaridagi Hubbining kaptarga aylanishi ajdodlarimizning odam o'lgandan keyin uning joni qushga aylanib uchib ketadi, degan qadimiy animistik qarashlariga bog'liq holda kelib chiqqan. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Jig'achi qishlog'ida yashovchi momolar birovning yosh bolasi nobud bo'lganini eshitishsa, "falonchining bolasi uchibdi" deydilar. Bu iborada ham qadimgi tasavvurlar aks etgan bo'lib, ajdodlarimiz o'limni inson umrining nihoyasi emas, balki hayotning bir shaklidan ikkinchi bir ko'rinishiga o'tish vositasi deb bilishgan. Ularning tushunchasiga ko'ra, jon barhayot bo'lib, odam o'lgach, u boshqa narsaga (ko'pincha) qushga aylanar emish. SHuning uchun ham qorako'lliklar lahjasida qo'llanilgan "bolaning uchishi " iborasi orqali jonning ko'kka, ya'ni ruhlar olamiga o'tishi nazarda tutilgan. Qul Tegin sharafiga o'rnatilgan bitik toshidagi katta yozuvda ham "капым қаған тчашг торуг козғаным уча бармыс", ya'ni "otam-qog'on shuncha el va yurt qozonib, ucha ketmish (o'lmish)" deyilgan.

Ajdodlarimiz marhum jonining ruhlar olamiga safari uchish harakati orqali amalga oshiriladi deb o'ylaganlar. Qadimgi turkiy tilda jannat ma'nosidagi uchmoh so'zi qo'llanilgan. Bizningcha, bu so'zning o'zagi ham aslida uchmoq fe'lidan bo'lib,

marhumlarning ruhi qushga evrilib narigi olamga uchib o'tishi nazarda tutilgan bo'lsa kerak. Tilimizda qo'rkib ketmoq ma'nosida uchib tushdi iborasi qo'llaniladi. Bu o'rinda ham qush ko'rinishidagi odam jonining qo'rqish natijasida tanadan chiqishi nazarga olingan.

Jon haqidagi bunday tasavvurlardan farqli ravishda Xubbi tirikchiligida kaptarga aylanib, uchib ketadi. Hubbining kaptarga evrilishi ham uzbek folklorining an'anaviy epik talqinlari asosida motivlashtirilgan.¹⁸

O'zbek xalq sehrli ertaklarida qush obrazlari turlicha talqin qilinadi. Qushning yuqoridagi talqinlariga esa ajdodlarimizning mifologik qarashlari zamin bo'lgan, deya olamiz.

111. O'zbek xalq dostonlarida mifologik qush obrazi.

O'zbek xalq dostonlarida mifologik qush obrazlari sifatida Semurg', g'oz, ko'k kabutar kabi qushlar keladi. Mifologik qushlar doston syujetida turli xil vazifalarni bajaradi hamda turli semantik ma'nolarga egaligi bilan ajralib turadi. Mifologik qush obrazi xalq dostonlarida quyidagi talqinlarga ega:

1. Epik homiy vazifasida kelishi.
2. Epik qahramonning maqsadiga erishishda sinov-shartlardan biri .
3. Epik qahramonga muhim xabarni yetkazadi.
4. Baxt va tole qushi
5. Dev va parilarning qushga aylanishi

O'zbek xalq dostonlarida epik homiy obrazi epik qahramonga yordam beruvchi, ularni tarbiyalab, qiyin vaziyatlarda shart va sinovlarni bajarishda ko'mak beradilar.

Turkiy xalqlar folklorida keng tarqalgan va keyinchalik yozma adabiyotga o'tib rivoj topgan mifopoetik obrazlardan biri bo'lmish afsonaviy homiy Xizr obrazi ham ajdodlar kultiga e'tiqod va mifologik qarashlar mahsuli. O'zbek xalq qahramonlik eposlaridagi g'ayritabiiy tug'ilish, epik to'siqlarni yengib o'tish va murodga yetishish motivlari bevosita Xizr obrazi bilan bog'liq.¹⁹

Nodira Sobirova o'zining "Epik homiy obrazining Xorazm dostonlaridagi talqini" nomli maqolasida o'zbek xalq ertaklari va dostonlarida uchrovchi epik homiy obrazini ikki xil ko'rinishga egaligin aytib o'tadi:

1. Jonivor ko'rinishidagi totemistik homiy.
2. Inson ko'rinishidagi totemistik homiy.

¹⁸ Жўраев М. Фольклоршунослик асослари.-т.,2008й, 46-бет

¹⁹ Назокат Аҳмедова.Халқ эпосларида ҳомий образи.//Ўзбек тили ва адабиёти.2015-йил, 5-сон, 61-бет

Jonivor ko'rinishidagi totemistik homiy obrazlariga ot, tuya, bo'ri, qush kabilar kiradi. SHulardan mifologik qush obrazi dostonlarda uchrovchi homiy obrazlardan biridir.

O'zbek xalq dostonlarida epik qahramonga homiy sifatida keladigan mifologik qush obrazi ham tasvirlangan. Odatda bu vazifani Semurg' qush bajaradi. «Ediga» dostonida Sochli aziz pari tomonidan tashlab ketilgan qahramon ma'lum muddat Semurg' uyasida bo'ladi. Semurg' obrazi devlar, parilar va ajdarholar bilan birga forsiy va turkiy xalqlarning barcha sehrli ertaklari, sehrli-sarguzasht dostonlarida ishtirok etadi. «Qumri bilan To'ti» dostonida u Qumrini Zarnigor qal'asida yashovchi To'tining makoniga bir zumda eltib qo'yadi. «Gul Sanobar» dostonida esa bu mifik qush Sanobarni 40 kunda SHabiston mamlakatiga yetkazadi. Ko'rinadiki, Semurg' dostonlarda qahramonlarni kerak bo'lgan joyga yetkazib qo'yuvchi homiy sifatida namoyon bo'ladi. Demak, ertak va dostonlarda homiy sifatida ishtirok etuvchi Semurg' qanotli otlar obrazining paydo bo'lishidan oldingi mifologik jonzot bo'lib hisoblanadi.²⁰

Mifologik qush xalq dostonlarida epik qahramonning maqsadiga erishishda sinov-shartlardan biri sifatida ham talqin qilinadi. Bosh qahramon sevikli yoriga yetishishida bajarilishi qiyin shartni qo'yadi, bu shart esa xalqning orzusi bo'lgan, insonlarga baxt keltiruvchi qushni keltirish bo'ladi. Xorazm dostonlaridan bo'lgan «Oshiqnoma»ga kiruvchi «SHahriyor» dostoni qahramoni ham bulbuligo'yo qushni olib kelish uchun safarga otlanadi.

«SHahriyor» dostoni bosh qahramoni SHahriyor bulbuligo'yo qushni olish jarayonida bitta shartga amal qilmagani uchun toshga aylanib qoladi. Akasini qutqarish uchun yo'lga chiqqan Anjumpari Aspi Jahongirga duch keladi. Afsungar Zahhok yordamida uni minib oladi. Ot ustidagi insonni uloqtirib tashlash uchun avval yetti qat osmonga, so'ng yetti qat yer ostiga kirib chiqadi. Ustidagi chavandoz

yiqilmaganidan keyin unga bo'ysunadi va butun voqealar davomida unga hamroh bo'ladi. Dastlab uni bulbuligo'yinging makoniga olib boradi. Bulbuligo'yo qushni qo'lga olgandan keyin undan dev va parilar yordamida toshga aylanib yotgan SHahriyorni o'z holiga keltirishni talab qilishadi. SHahriyor o'ziga kelgach, bulbuligo'yon ham olib, o'z eliga qaytadilar.²¹ Ushbu dostonida bulbuligo'yo epik qahramonga o'z maqsadiga yetishishda bajarishi shart bo'lgan sinovlardan biri sifatida talqin qilinadi.

Xalq dostonlarida kompozitsiyasida mifologik qush epik qahramonga muhim xabarni yetkazadi. Bunga misol sifatida "Alpomish" dostonidagi g'oz obrazini keltirishimiz mumkin.

"Alpomish" dostonining Po'ltan shoir va Ergash Jumanbulbul o'g'lidan yozib olingan variantlarida Ho'y tog'i Alpomishga Alloh tomonidan madad keluvchi makon sifatida talqin etilgan: "Ho'y degan tog'da juhudlarning qishlog'i bor edi. SHu juhudlardan SHakaman degan bir juhud bor edi, o'zi mergan edi. Kasbi tog'larda qushlar ovlab yurar edi. Bir kuni toqqa borib, bir g'ozni otdi. G'oz yiqilmay, chappa uchib, boshi aylanib, Alpomish yotgan zindonga tushib ketdi. Lekin Alpomish mast bo'lib, besh yil o'tganini bilmay qoldi. SHunday qarasa, bir g'oz qizil qonga bo'yalib, o'z holi bilan ovora bo'lib yotibdi. Alpomishning zindonda yotgani ham ko'ziga ko'rinmay, g'ozning ahvoliga qarabdi. SHunda g'ozga xudodan amr bo'lib, hazrati Jabroil g'ozning tilidan muhrni olib, odamday so'zga kirdi. SHunda Alpomish bilan g'oz bir-biriga qarab savol-javob so'zlashdi."

O'zginamni baland tog'dan uchirdim,
Pok bo'lmasa ajal to'nin bichirdim,
Nima qilay xudoyimning hurmati,
Bo'zlab qolgan Boybo'rining hurmati,

²⁰Нодира Собирова. Эпик ҳомий образининг Хорзм дostonларидаги талқини.//Ўзбек тили ва адабиёти.2011-йил,3-сон,69-бет

²¹ Нодира Собирова. Эпик ҳомий образининг Хорзм дostonларидаги талқини.//Ўзбек тили ва адабиёти.2011-йил,3-сон,69-бет

G'arib bo'lgan yolg'izliging hurmati,

Qilgan gunohingni endi kechirdim.”

G'ozning Alpomishga bergan javobidan ko'rinadiki, g'oz Alloh tomonidan Alpomishga yuborilgan yordamchi, elchi bo'lib, u qahramonga muhim xabarni yetkazuvchi mifologik obrazdir:

“Arza xatim, jonivor, senga omonat,

Omonatga qilma, jonvor, xiyonat,

Ho'y tog'idan o'tgin sog'u salomat,

Ushbu arzim Boybo'riga omonat,

Xudoyim o'zingni qilsin salomat.”²²

Xalq dostonlarida baxt va tole qushi obrazi ham mavjud bo'lib, u asar kompozitsiyasida tanlangan shaxsni, podshohni aniqlash vazifasini bajaradi.

Xalq dostonlarida keluvchi ushbu qush Anqo va Humo qushining ta'sirida yaratilgan bo'lib, u dostonlar kompozitsiyasida baxt va omad yaratish vazifasini bajaradi. Ular o'zbeklarning ko'hna dunyo qatlamida yashagan ajdodlari shuurida yuzaga kelgan muqaddas qush, omad va tole haqidagi tushunchalarning o'zaro uzviy bog'lanishida kelib chiqqan badiiy umumlashmalardir. Bu xil qushlar dostonlarda inson saodati, adolatli shoh haqidagi ideal g'oyalarining badiiy tajassumi, orzu-istaklarining o'ziga xos badiiy ifodasidir. Adolatli shoh haqidagi ideal g'oyalar xalq tafakkurida qayta ishlanadi va badiiy obrazlarda jilolanib, o'ziga xos motivlarda aks etgan. Xalq dostonlarida Humo qushni uchirish va tolei baland kishini (boshiga qo'nish) aniqlash hodisasi syujet voqealarining mantiqiy uzviyligini ta'minlab, bosh qahramon taqdirida o'zgarish yasash, uni odil shoh sifatida belgilash vazifasini ado etadi. “Kuntug'mish” dostonida taqdirning qiyin sinovlariga uchragan Kuntug'mish falakdan shikoyat qilib yurgan paytda o'lgan Buvraxonning o'rniga taxtga o'tkazish

²² Алпомиш. Айтувчилар: Пўлкан шоир ва Эргаш Жуманбулбул ўғли, Ёзиб олувчи: Муҳаммад Иса Эрназар ўғли. Нашрга тайёрловчи: Тўра Мирзаев, Зубайда Ҳусаинова-Т., 1998, 131-бет

uchun shoh tanlanayotgan bo'ladi. SHohni tanlash uchun qush uchiriladi. Qush uch marta ham Kuntug'mishning boshiga qo'nadi. Dostonning ayni syujetidan bosh qahramon-Kuntug'mish taqdirida o'zgarish yasaladi, uni odil shoh sifatida belgilashadi. Doston syujetining ayni shu nuqtasi yechimning ijobiy yakullanishiga poydevor bo'ladi. Chunki Mohiboy va Gurkiboyni dor tagidan qutqarib qolish shohlarning qo'lidan kelardi. Bundan tashqari, qush uchirish motivi dostonda Kuntug'mishning tanlangan g'ayrioddiy qahramon ekanligini isbotlab bergan. Kuntug'mish o'g'illari va yori Xolbeka bilan birga o'z yurtiga qaytadilar.

Mifologik qush obrazining xalq dostonlaridagi yana bir talqini parilarning qushga aylanish motivini keltirib chiqargan. Bu esa dev va parilarning bir dumalab insonga yoki pariga aylanishi bo'lib, qushning bunday talqini dostonlarga fantastik ruh bag'ishlagan. Bundan tashqari, o'quvchini dostonning sirli olami sari yetaklab, syujetning dinamik rivojini ta'minlab bergan. "Malikai ayyor" dostonida Malikai ayyor Go'ro'g'liga ko'k kaptar qiyofasida ko'rinadi. Dostonda bu syujet voqeasi qahramonning o'z yorini qidirib olis yurtlarga safarga borishiga zamin yaratadi.

Taniqli baxshi Rahmatulla Yusuf o'g'li yozib olgan etnofolkloristik ma'lumotlarga ko'ra, Nurotaning Qorakisa qishlog'ida yashovchi kishilar "devlarning joni kabutar suvratida namoyon bo'lib turadi" deydi. Aytishlaricha, dev nafas olganda joni kabutarday og'zidan kirib-chiqib turarkan, ya'ni nafas chiqarsa, dalaga bir quloch parvoz kilib, nafasni tortsa, tomog'idan kirib ketib turadi. Ajoyib afsonalar dostonlarda juda ko'p, ammo odamning joni to'g'risida ham devlarning joni haqidagi afsonaga o'xshash bir kichik afsona bor. Odamning joni ham jasadiga yarasha, odamning joni chibinday bo'lar emish. Agar odam tush kursa, joni burnidan chiqib ko'p joylarga borib kelar emish. O'sha yurganida jon nimani ko'rsa, odam uyquda uning aksini ko'rib, shuni "tush" deb atar emish".²³

²³ М.Жўраев.Фольклоршунослик асослари.-Т.,2008,78-бет

Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olingan "Malika Ayyor" dostonida tasvirlanishicha, Go'ro'g'li Zebit cho'lidagi SHopar ko'lida g'aroyib bir qo'rg'onga kirib qoladi. Go'ro'g'li qo'rg'on ichidagi ajoyibotlarni tomosha qilib turganida, "osmondan bir ko'k kaptar quyulib kelib, bir og'nab turib, bir surxayil gardon, ofati jon, pista dahan bir ajib nozanin pari bo'lib" turadi. Go'ro'g'liga o'zining manzil-makonini, nasl-nasabini ma'lum qilganidan keyin yana bir ag'anab turib, kaptar libosini kiyib falakka parvoz qilib uchib ketadi. Pari va devlarning kaptar ko'rinishida uchib kelishi tasviri o'zbek xalq ertaklarida ham qayd qilingan. Bundan tashqari, xalqimiz orasida "kaptarlarga ozor berma, ularning parisi bo'ladi", "parilar kaptar bo'lib, davra solib yuradi" degan gaplar ham bor.

Folklorshunos olim M.Jo'raevning fikricha, Xorazmdan topilgan astadon-ossuariylardan birining qopqog'ida qush shakli mavjudligi animistik qarashlar ifodasidir. 11-111 asrlarga oid osori atiqalardan biri, Tuproqqal'adagi devoriy lavhada esa qanotli yosh yigit - siren obrazi tasvirlangan. Bizningcha, yuz tuzilishi navqiron yigitni eslatuvchi bu qush surati kaptarga evrilib uchib ketgan Hubbi haqidagi qadimgi Xorazm asotirlarining tasviriy ifodasi bo'lishi mumkin.²⁴

Xalq dostonlaridagi dev va parilarning kabutarga aylanishi motivi xalqimizning jon va ruh haqidagi animistik qarashlarining transformatsiyasi natijasi ekan. Bu esa xalq dostonlarida kabutar, ko'k kabutar va qushlarning dev va parilar joni sifatidagi talqiniga asos bo'lgan.

Xulosa

O'zbek folklor asarlarida keluvchi mifologik qush obrazlariga Semurg', Anqo, Humo, Burgut, qaldirg'och, g'oz, laylak kabilar kiradi. Mifologik qushlar folklor asarlari kompozitsiyasida turli xil vazifalarni bajarishi bilan ajralib turadi. Mifologik qush obrazi - homiy kuch, yaratuvchi, ilohiy qudrat timsoli bo'lib, u ertak va dostonlarda ko'p vazifalarni ado etadi. Qushning funktsional harakatida insonga yordam berish, uni himoya qilish, qahramonning jasorat ko'rsatishiga hamda maqsadiga erishishida ko'maklashuvchi ezgu kuch xususiyatlari namoyon bo'ladi. U zulmatni yoritishdek maqsadni amalga oshirishda matonat, qat'iylik ko'rsatadi. Obrazning bu harakati inson qalbini yoritib, qushga e'tiqod uyg'otadi. Mifologik qush obrazi semantikasi syujet voqealarini aniqlab, fantastik ko'lamni oshirish, g'ayritabiiylikni bo'rttirib, eng muhimi, u syujet rivojida burilish yasab, konflikt yuksalishiga nuqta qo'yadi.

Mifologik qushlarning genezisi, tarixiy asoslari bir manba, qadimgi mifologik qatlamida shakllangan muqaddas saena, qush kul'ti, kosmogonik asotir, olovga muhtojlik g'oyalari, animizm tushunchalariga borib taqaladi. Mifologik qushning epik namunasi qahramonga yordamchi, himoyachi personaj sifatida faoliyat ko'rsatadi. Qahramonni zulmat dunyosiga olib tushib, ko'z yumib-ochguncha yorug'lik olamiga olib kiruvchi ilohiy qudrat, vazifasi uch olamni o'zaro bog'lash, qahramonni sirli hodisalardan voqif etish yo'l ko'rsatishga yo'naltirilgan bo'lib, asosan ta'limiy-estetik vazifani ado etadi.

U o'zbek xalq ertak va dostonlarida yordamchi personaj, qahramonga do'st, homiy, safarda yo'ldosh, uzoqni yaqin, mushkulni oson qiluvchi, sirli hodisalardan voqif etib, yo'l ko'rsatuvchi madadkor kuch, ayni paytda, yovuzlikning ashaddiy dushmani sifatida faoliyat ko'rsatadi. SHu bilan birga mifologik qush obrazi insonlarga baxt va omad olib keluvchi, ularga farovon hayot baxsh etuvchi sifatida

²⁴ M.Жўраев.Фольклоршунослик асослари.-Т.,2008,79-бет

ham gavdalanadi. Bundan tashqari, ertak va dostonlarimizda mifologik qushlar dev va parilarning joni sifatida ham talqin qilinadi. Bunga ham, albatta, ajdodlarimizning animistik qarashlari asos bo'lgan. Mifologik qush obrazlari xalqimizning qadim mifologik dunyoqarashlarining badiiy –estetik sathga ko'chgan shaklidir. Ajdodlarimizning mifologik qarashlari transformatsiyasi folklor asarlarida qush motivining, mifologik qush obrazlarining yuzaga kelishi asos bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch. –T.:O'zbekiston nashriyoti, 2008
2. Авесто. Варахран алқови// Ўзбек тили ва адабиёти, 2000,3-сон, 72-бет.
3. Имомов К. Ўзбек фольклорида Ҳумо қуши. //Ўзбек тили ва адабиёти. 2011-йил, 5-сон,21-бет
4. М.Жўраев.Фольклоршунослик асослари.-Т.,2008
5. Маҳмуд К о ш ғ а р и й. Девону луғотит турк, 1 -жилд. Тошкент, 1960.477-бет.
6. Нодира Собирова.Эпик ҳомий образининг Хорзм дostonларидаги талқини.//Ўзбек тили ва адабиёти.2011-йил,3-сон,69-бет
7. Т о к а р е в С. А. Оген // Мифы народов мира. Том 2. М., 1997. С. 158-160.
8. [http\\www. fayl-Gulqahqah](http://www.fayl-Gulqahqah).
9. [http\\www.fayl_sehrli_ertaklar](http://www.fayl_sehrli_ertaklar).